

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDA AMALGA OSHIRISHDA FUQAROLARNING ISHTIROKI

Norbutayev Erkin Xurozovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professori v.b., yu.f.b.f.d., dotsent

Saparov Elbek Mansurjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti, safdor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14550658>

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 6196-son[1] (2021 yil 26 mart) farmoni qabul qilindi.

Ma'lumki, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirish, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulkini turli tajovuzlardan himoya qilishda profilaktika inspektorlarining o'rni muhim ahamiyatga egadir. Fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini, ularning xavfsizligini ta'minlashda mahalla hududida xizmat faoliyatini olib boruvchi profilaktika inspektorlarining doimiy ravishda xalq bilan birga bo'lishi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda o'z samarasini bermoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida har bir mahalla kesimida qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlashda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Barchamizga ma'lumki, huquqbuzarlik ijtimoiy ma'noda jamiyat, fuqarolar va jamoat birlashmalarining huquq va manfaatlariga xavf tug'dirishga qodir xulq bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini qiyinlashtiradi va ularning buzilishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatida jamiyatda turli darajadagi ko'ngilsizliklar yuz bera boshlaydi. Biroq huquqbuzarlikka o'z vaqtida chora ko'rmaslik ikkinchi og'irroq turdagi huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi va buning oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga putur yetadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga erishildi. Lekin

aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholanib qolinayotgan holatlar ham uchrab turibdi. Aslida, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, oila va ta'lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi va u o'z ichiga huquqiy, ijtimoiy, tarbiyaviy jarayonlarni oladi. Bizning fikrimizcha, sodir etilayotgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar yoxud jinoyatlarni profilaktika inspektorlariga qaraganda fuqarolar yoki boshqa bir yuridik shaxslar oldinroq payqashadi, lekin bunga aksariyat hollarda befarq munosabatda bo'lishlarining sababidan o'zlari ham jabrdiyda bo'lib qolishadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi degan qarash mavjud, ammo sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilinsa, bu albatta o'z samarasini beradi. Bundan tashqari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etgan fuqarolar yoki yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizom[2] qoidalariga binoan rag'batlantiriladilar, bu esa o'z navbatida fuqarolarning sodir etilishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz holatlarni barvaqt oldini olishda yanada faol bo'lishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[3] farmonida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iboratligi alohida qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra jamoat xavfsizligini ta'minlovchi quyidagi 10 ta asosiy subyektlar belgilangan:

➤ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; ➤ Ichki ishlar vazirligi; ➤ Milliy gvardiya; ➤ Favqulodda vaziyatlar vazirligi; ➤ Davlat xavfsizlik xizmati; ➤ Bosh prokuratura;	➤ Sog'liqni saqlash vazirligi; ➤ Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi; ➤ Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi; ➤ mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat.
--	---

Shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlar hisoblanadilar. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda va jinoyatchilikka qarshi kurashishda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar balki, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ta'lim muassasalari ham birdek mas'uldirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev prezidentlik lavozimiga kirishgan dastlabki davrdan boshlab, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga asosiy e'tiborni qaratish lozimligini ta'kidlab shunday degan edi: "Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik

hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va mas'uliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralari ko'rishimiz darkor". Buning natijasi o'laroq, 2017-yil 10-aprelda "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5005-sonli farmoni[4] qabul qilindi. Unda huquqbuzarliklarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha ishlar asosan, sodir etilgan g'ayri qonuniy qilmishlarning oqibatlariga qarshi kurashishdan iboratligi, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli va samarali chora-tadbirlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi e'tirof etib o'tiladi va shu bilan birga ushbu kamchiliklarni bartaraf etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

Jinoyatchilikning oldini va huquqbuzarliklar profilaktikasi jinoiy-huquqiy jazolar orqali emas, balki huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularning sodir etilish sabab va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish chora-tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi, bular esa hududiy profilaktika inspektorlari zimmasiga huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi voqea-hodisalar va jarayonlarni bilishni va doimiy tahlil qilib borishdek mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Xususan, kriminogen vaziyatni chuqur o'rganish, uni tahlil qilish va aniqlangan huquqbuzarliklarning omillarini joyida barvaqt bartaraf etish orqali barqaror vaziyatni ta'minlashdan iborat bo'ladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish bilan bog'liq aniq vazifalar belgilangan edi. Qayd etish joizki, o'tgan vaqt davomida Prezidentimizning bevosita rahbarligi va tashabbuslari asosida fuqarolarning tinch va farovon hayot kechirishini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

2022-yilning 28-yanvarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni[5] qabul qilindi. Ushbu farmonda huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unga ko'ra:

1. Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berish va ularni ro'yxatga olishning "e-huquqbuzarlik" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish;
2. Bir yil davomida takroran sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadigan

ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarning hisobini bir yil davomida yuritish va muddat o'tishi bilan avtomatik ravishda hisobdan olib tashlash tartibini yo'lga qo'yish;

3. Jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish;

4. Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo'limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish;

5. Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish;

6. Harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash kabi vazifalar belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish borasida olib borilayotgan barcha islohotlar "Barcha sa'yi-harakatlar inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida jamiyat a'zolarining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, fuqarolarning sarsongarchilik holatlarini oldini olish, ularning davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlariga bo'lgan ishonchini oshirish, shaxs, jamiyat va davlatga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni oldini olish, huquqbuzarliklar sodir etilish holatlarini kamaytirish, fuqarolarning normal turmush tarzini ta'minlashga qaratilganligi bu esa mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash shaxs, jamiyat va davlat huquq manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasida olib borilayotgan islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 6196-son farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qarori bilan tasdiqlangan «Fuqrollar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risida»gi nizom.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabridagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni